

## VERTIKAL SILINDRIK REZERVUARLARNI TURLI QISMLARINI PAYVANDLAB TAYYORLASH TEKNOLOGIK JARAYONINI ISHLAB CHIQISH

**Olimov Elmurod Daminjon o'g'li**

*AndMI "TMJ" yo'nalish 2 – kurs k-83-21 guruh talabasi*

**Xoshimov Xalimjon Xamidjonovich**

*AndMI "TMJ" kafedrasi dotsenti*

Qoidalarning taalluqliligi va qo'llanish jahbasi Mazkur "Vertikal silindrik po'lat rezervuarlarning tuzilishiha doir qoidalari" (quyida — Qoidalalar) neft va neftmahsulotlari uchun vertikal silindrik po'lat rezervuarlarning konstruksiyasi, tuzilishi, yasalishi, montaj qilinishi, sinalishiga oid umumiy texnik hamda sanoat xavfsizligini ta'minlash, avariylar, ishlab chiqarishdagi shikastlanish holatlarining oldini olishga qaratilgan talablarni belgilaydi.

Mazkur Qoidalalar yangidan loyihalanayotgan, hajmi 100 dan 50000 m<sup>3</sup> gacha, doimiy yoki suzuvchi tomli, neft va neft mahsulotlari solinadigan vertikal silindrik po'lat rezervuarlar uchun taalluqlidir.

Hajmi 50000 m<sup>3</sup> dan katta bo'lgan rezervuarlarni loyihalash, tayyorlash va montaj qilishni, individual shartlarga ko'ra, mazkur Qoidalalar va ГОСТ 31385- 2016 dagi holatlarni inobatga olib, ixtisoslashgan tashkilotlar bajaradi.

Ushbu Qoidalalar izotermik rezervuarlar (suyultirilgan gazlarni saqlash), issiq suv uchun bak-akkumulyatorlar va tajovuzkor kimyoviy mahsulotlar saqlanadigan rezervuarlarga tegishli emas.

### **Umumiyl talablar :**

Po'lat varaqlarining turlari (sortament) Rezervuarlarni qurish, qalinligi 4 — 50 mm, eni 1500 — 3000 mm, uzunligi 6000 — 12000 mm o'lchamdag, qirralari kesilgan po'lat prokatlardan tayyorlanadi. Po'latning qalinligi barcha tomonlarida simmetrik qo'yimda yoki nosimmetrik qo'yimda, ammo pastki og'ish chegarasi 0,3 mm ga teng qalinlikda yetkazib berilishi kerak.

Rezervuarlarni ishlatish sharoitlari va ularning konstruktiv xususiyatlari buyurtmachi tomonidan berilgan bo'lishi kerak Buyurtmachi tomonidan ishlatish sharoitlari va boshqa talablar yo'qligida, O'zbekiston Respublikasidagi qurilish me'yorlari va qoidalari, GOST 31385 dagi talablar va holatlarni hisobga olib, loyihachi tomonidan qabul qilinadi va loyihalashga texnik topshiriqda buyurtmachi bilan kelishiladi.

Mazkur Qoidalalar buyurtmachi taklifiga binoan turli geometrik o'lchamdag rezervuarlarni loyihalashga imkon beradi.

Mazkur Qoidalarga ko‘ra, tayyorlash va montaj qilish uchun qulayroq o‘lchamga ega bo‘lgan, 100 dan 50000 m<sup>3</sup> gacha hajmdagi rezervuarlarning asosiy parametrlari keltirilgan.

Loyihalashga shartnoma tuzish paytida rezervuarni ishlatish sharoitlari va konstruktiv ma’lumotlari keltirilgan buyurtma blankini buyurtmachi loyihachiga berishi tavsiya etiladi.

Barcha turdagи rezervuarlarni tayyorlashni, ushbu Qoidalar va O‘zbekiston Respublikasida amalda bo‘lgan normalar talablariga mos ravishda tuzatishlar kiritib va loyihachi bilan ularni oldindan kelishib olish sharti bilan oldin amalda bo‘lgan namunaviy loyihalar bo‘yicha bajarish mumkin.

Saqlanadigan mahsulot hajmiga ko‘ra rezervuarlar 4 sinfga bo‘linadi: a) I - sinfga sig‘imi 50000 m<sup>3</sup> va undan katta bo‘lgan rezervuarlar kiradi; b) II - sinfga sig‘imi 20000 dan 50000 m<sup>3</sup> gacha bo‘lgan hamda daryolar, yirik suv havzalari qirg‘og‘ida va shahar qurilishi doirasida joylashgan, sig‘imi 10000 dan 50000 m<sup>3</sup> gacha bo‘lgan rezervuarlar kiradi; v) III - sinfga sig‘imi 1000 dan 20000 m<sup>3</sup> gacha bo‘lgan rezervuarlar kiradi; g) IV - sinfga sig‘imi 1000 m<sup>3</sup> gacha bo‘lgan rezervuarlar kiradi.

Rezervuarlarning xavfllilik darajasi, materiallarga bo‘lgan maxsus talablar, metall konstruksiyalar komplektiga doir ishchi hujjatlarni tekshirish hajmi, hamda vazifasining muhimliligiga ko‘ra, ishonchlilik koefitsiyenti hisob-kitobini inobatga olgan holda belgilanadi .

Tutib turuvchi konstruksiyalari 100°C dan yuqori haroratda ishlaydigan rezervuarlarni loyihalashda qo‘llaniladigan po‘lat rusumlarining fizik-mexanik tafsilotlarining o‘zgarishini hisobga olish zarur.

Rezervuarlarni loyihalash, yasash va qurish jarayonida mazkur Qoidalar bilan birga, belgilangan tartibda tasdiqlangan mehnat muhofazasi va gigiyena, yong‘in xavfsizligi va atrof-muhit himoyasiga oid me’yoriy hujjatlarga amal qilish lozim. Materiallarga oid umumiy talablar

Rezervuar konstruksiyalarda qo‘llaniladigan po‘latlar O‘zbekiston Respublikasining mavjud standartlari, texnik shartlari hamda mazkur Qoidalar talablariga javob berishi kerak.

Konstruksiyalarning barcha elementlari materiallarga doir talablarga ko‘ra 2 guruhga bo‘linadi:

a) asosiy konstruksiylar:

1) A kichik guruh — rezervuarning devori, devorga payvandlanadigan tagliklar yoki halqasimon chetlar, devordagi lyuklar va quvurchalarning gardishlari va ularga ulanadigan flanetslar, devorga payvandlanadigan quvvat beruvchi qatlamlar, (mustahkamlovchi qoplamlar) statsionar tomning tayanch halqalari, konstruktiv elementlarni mahkamlash uchun devoridagi qistirma plastinalar;

2) B1 kichik guruh — tom karkasi, karkassiz tomlar; 3) B2 kichik guruh — rezervuar tagining markaziy qismi, suzuvchi tomlar va pontonlar, ankerli (bolt) mahkamlagichlar, karkasli tomning to'shamalari, tomdagi lyuk va quvurchalarning gardishining lyuk qopqoqlari; b) yordamchi konstruksiyalar: narvonlar, maydonchalar, o'tish joylari, to'siq (g'ov) lar va boshqalar.

Rezervuar konstruksiyalari uchun elektrpech, kislорod-kонвертер yoki marten usulida eritib quyilgan po'latlar qo'llanishi lozim. Prokatning sifati va qalinligiga doir qo'yiladigan talablar ko'rsatgichlariga ko'ra, po'lat issiq prokat, termik ishlov (normal holatga keltirilgan yoki toblastdan o'tgan) dan yoki nazorat prokatidan keyin keltirilishi kerak. A kichik guruhga mansub asosiy konstruksiyalar uchun faqat qulay (kislорoddan to'liq tozalangan) po'latdan foydalanish lozim. Ushbu kichik guruhning konstruksiyasini yasashga keltirilayotgan uglerodli, past uglerodli va past legirlangan po'latlarning mustahkamlik sinfi jadvalga mos bo'lishi lozim. B kichik guruhdagi asosiy konstruksiyalar qulay va yarim qulay po'latlardan yasalishi kerak.

Yordamchi konstruksiyalarni tayyorlash uchun yuqorida bayon etilgan po'latlardan tashqari, ishlatish paytidagi haroratni e'tiborga olib, qaynovchi po'latlardan foydalanish mumkin.

### Xulosa:

Mazkur "Vertikal silindrik po'lat rezervuarlarning tuzilishiga doir qoidalar" neft va neftmahsulotlari uchun vertikal silindrik po'lat rezervuarlarning konstruksiyasi, tuzilishi, yasalishi, montaj qilinishi, sinalishiga oid umumiy texnik hamda sanoat xavfsizligini ta'minlash, avariylar, ishlab chiqarishdagi shikastlanish holatlarining oldini olishga qaratilgan talablarni belgilaydi. Mazkur Qoidalar yangidan loyihalanayotgan, hajmi 100 dan 50000 m<sup>3</sup> gacha, doimiy yoki suzuvchi toqli, neft va neft mahsulotlari solinadigan vertikal silindrik po'lat rezervuarlar uchun taalluqlidir. Hajmi 50000 m<sup>3</sup> dan katta bo'lган rezervuarlarni loyihalash, tayyorlash va montaj qilishni, individual shartlarga ko'ra, mazkur Qoidalar va GOST 31385 dagi holatlarni inobatga olib, ixtisoslashgan tashkilotlar bajaradi. Payvandlash materiallari (elektrodlar, payvandlash simlari, flyuslar, himoya gazlari) konstruksiyalarni yasash va montaj qilishdagi texnologik jarayon va tanlangan po'lat rusumiga bo'lган talablarga mos ravishda tanlanishi kerak. Ayni paytda, qo'llaniladigan payvandlash materiallari va payvandlash texnologiyasi, payvand choqlarining mexanik xususiyatlari mazkur Qoidalarda tavsiya bo'yicha tanlangan po'latlar uchun belgilangan xususiyatlardan kam bo'lmasligi shart.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tarjimon: E.O.Otaqo'ziyev - "Neftgazme'yor" MChJ me'yoriy hujjat ishlab chiqish bo'limi muhandisi LEX.UZ
2. 356-сон 17.12.2010. NEFT VA NEFTMAHSULOTLARI UChUN VERTIKAL SILINDRIK PO'LAT REZERVUARLARNING TUZILISHIGA DOIR QOIDALARNI TASDIQLASH HAQIDA (lex.uz)
3. "Sanoatgeokontexnazorat" davlat inspeksiysi boshlig'ining 2010-yil 17-dekabr, 356-sonli buyrug'iga ILOVA LEX.UZ SAYRI